



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 93-100 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

EKSPORT FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING TASNIFI



Abdulatifova Moxinur Alisher qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy mohiyati, ularning hududiy eksport rivojlanishidagi o'rni hamda tasniflanish yondashuvlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Globallasuv jarayonlarining jadallashuvi eksport faoliyatining raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar tizimini chuqur o'rganishni talab etmoqda. Tadqiqot davomida eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, investitsion, innovatsion, logistika va tashqi iqtisodiy omillar xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar asosida tizimlashtirildi. Ma'jud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, hududiy eksport salohiyatining shakllanishida ishlab chiqarish resurslari, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, inson kapitali va investitsion muhitning ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijasida eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning mualliflik tasnifi ishlab chiqildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi konseptual jihatdan yoritildi. Olingan natijalar mintaqalarda eksportni rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: eksport faoliyati, eksport salohiyati, eksport omillari, hududiy rivojlanish, investitsion muhit, logistika infratuzilmasi, raqobatbardoshlik, innovatsion omillar, institutsional omillar, tashqi savdo, mintaqaviy iqtisodiyot, eksport diversifikatsiyasi.

Аннотация: В статье научно исследованы экономическая сущность факторов, влияющих на экспортную деятельность, их роль в развитии регионального экспорта и подходы к их классификации. Ускорение процессов глобализации в мировой экономике требует углубленного изучения системы факторов, обеспечивающих конкурентоспособность экспортной деятельности. В ходе исследования на основе зарубежных и отечественных научных источников систематизированы экономические, институциональные, инвестиционные, инновационные, логистические и внешнеэкономические факторы. Проведен сравнительный анализ существующих научных подходов, а также обоснована значимость производственных ресурсов, транспортно-коммуникационной инфраструктуры, человеческого капитала и инвестиционной среды в формировании регионального экспортного потенциала. В результате исследования разработана авторская классификация факторов, влияющих на экспортную деятельность, и концептуально раскрыта их взаимосвязь.

Ключевые слова: экспортная деятельность, экспортный потенциал, факторы экспорта, региональное развитие, инвестиционный климат, логистическая инфраструктура, конкурентоспособность, инновационные факторы,

институциональные факторы, внешняя торговля, региональная экономика, диверсификация экспорта.

Abstract: *The article examines the economic essence of factors affecting export activity, their role in regional export development, and approaches to their classification. The acceleration of globalization requires a deeper study of the system of factors that ensure export competitiveness. The study systematizes economic, institutional, investment, innovation, logistics, and external economic factors on the basis of foreign and domestic scholarly sources. Existing scientific approaches to the classification of export-related factors are comparatively analyzed. The role of production resources, transport and communication infrastructure, human capital, and the investment environment in the formation of regional export potential is substantiated. As a result, an authorial classification of factors affecting export activity is proposed, and their interrelationship is conceptually clarified.*

Keywords: *export activity, export potential, export factors, regional development, investment environment, logistics infrastructure, competitiveness, innovation factors, institutional factors, foreign trade, regional economy, export diversification.*

Kirish

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida eksport faoliyati mamlakat va hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, global qiymat zanjirlarining shakllanishi hamda raqobat muhitining kuchayishi eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Eksport nafaqat valyuta tushumlarini oshirish, balki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsiyalar oqimini rag'batlantirish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda eksport faoliyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar eksport hajmining o'sishini ishlab chiqarish omillari bilan bog'lasalar, boshqa olimlar institutsional muhit, logistika infratuzilmasi, innovatsion salohiyat va inson kapitalining ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Shu sababli eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va ularning hududiy rivojlanishdagi rolini aniqlash ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida eksportni rag'batlantirish, mahsulotlar geografiyasini kengaytirish va mintaqalar eksport salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasida eksport hajmini sezilarli darajada oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirish hamda hududlarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Biroq mintaqalar eksport ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlar eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ularni ilmiy asosda tasniflashni talab etmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish, omillar tasnifini takomillashtirish hamda hududiy eksport rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy determinantlarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Eksport faoliyatining rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar masalasi iqtisodiy nazariyaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda eksportning rivojlanish darajasi nafaqat ishlab chiqarish resurslari bilan, balki institutsional muhit, logistika infratuzilmasi, investitsion faollik, innovatsion salohiyat va tashqi iqtisodiy integratsiya darajasi bilan ham belgilanadi.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri D. North iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida institutlar va qoidalar tizimini ko'rsatadi. Uning yondashuviga ko'ra, mulk huquqining himoyalanganligi, shartnomalar ijrosi va davlat boshqaruvi sifati iqtisodiy faollikni rag'batlantirib, eksport operatsiyalarining samaradorligini oshiradi [1]. D. Rodrik esa eksport faoliyatining rivojlanishida sanoat siyosati, davlat qo'llab-quvvatlashi va institutsional rag'batlar muhim ahamiyat kasb etishini asoslaydi [2].

Xorijiy investitsiyalar va xalqaro ishlab chiqarish omillarining eksportga ta'sirini o'rgangan J. H. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan OLI paradigmasi eksport faoliyatining rivojlanishida investitsion muhit va hududiy ustunliklarning rolini ochib beradi. Mazkur nazariyaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar oqimi yuqori bo'lgan hududlarda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning rivojlanish sur'atlari ham yuqori bo'ladi [3].

Xalqaro savdo nazariyasining zamonaviy vakillaridan E. Helpman eksport faoliyatining rivojlanishiga texnologik taraqqiyot, innovatsiyalar va bozor hajmining ta'sirini ilmiy asoslagan. Uning tadqiqotlarida eksport hajmining oshishi ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion faoliyat bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatib berilgan [4]. J. Sachs va A. Warner esa tashqi savdo erkinligi hamda eksportga yo'naltirilgan rivojlanish siyosati iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishini qayd etadilar [5].

Logistika va transport infratuzilmasining eksportga ta'siri J. F. Arvis va hammualliflari tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Ularning logistika samaradorligi bo'yicha yondashuvlarida transport xarajatlari, bo'xona jarayonlari va yetkazib berish sifati eksport raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillar sifatida talqin qilinadi [6]. OECD, UNCTAD, ITC va Jahon banki tadqiqotlarida ham eksportning barqaror o'sishini ta'minlashda global qiymat zanjirlari, innovatsiyalar, institutsional sifat, ishlab chiqarish salohiyati va transport infratuzilmasi asosiy determinantlar sifatida ko'rsatiladi [7; 8; 9; 10].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Q. Abdurahmonov raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar, mehnat resurslari va institutsional omillarning ahamiyatini asoslagan [11]. A. Vahobov, Sh. Xajibakiyev va E. Nabiyev xalqaro iqtisodiy integratsiya hamda tashqi savdo siyosatining eksport faoliyati kengayishidagi rolini tahlil qilganlar [12]. B. Berkinov mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va eksport o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, hududlarning ishlab chiqarish va infratuzilmaviy salohiyati eksport natijalarini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi [13]. Sh. Mustafakulov esa innovatsion rivojlanish va eksport diversifikatsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslaydi [14].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali va o'zaro bog'liq tizimni tashkil etishini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu omillarning yagona tasnifi va hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan kompleks baholash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy, institutsional, investitsion, innovatsion, logistika va tashqi

iqtisodiy omillar guruhlari bo'yicha tizimlashtirish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy mohiyatini aniqlash, ularni ilmiy jihatdan tasniflash va hududiy eksport rivojlanishiga ta'sirini baholash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro savdo nazariyalari, institutsional iqtisodiyot konsepsiyasi, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish modeli, endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi hamda mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalari tashkil etdi.

Tadqiqotda abstrakt-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, sintez va induksiya, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda grafik-jadval usullaridan foydalanildi. Abstrakt-mantiqiy tahlil eksport omillarining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda, qiyosiy tahlil xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini solishtirishda, guruhlash usuli esa eksport omillarini iqtisodiy, investitsion, innovatsion, institutsional, logistika va tashqi iqtisodiy guruhlarga ajratishda qo'llanildi.

Ilmiy manbalarni umumlashtirish natijasida eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar oltita asosiy guruhga ajratildi: iqtisodiy, investitsion, institutsional, innovatsion, logistika va tashqi iqtisodiy omillar. Ushbu tasnif eksport faoliyatining ko'p omilli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi hamda hududiy eksport rivojlanishini kompleks baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning konseptual modeli eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlariga asoslandi. Modelga ko'ra, investitsiyalar va innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, logistika va institutsional muhit esa mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada eksport hajmi va eksportning raqobatbardoshligi ortib, hududiy iqtisodiy rivojlanish jadallashadi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilinib, ularning mazmuni umumlashtirildi. Natijalar eksport faoliyatining rivojlanishi birgina ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki investitsiyalar, innovatsiyalar, institutsional muhit, logistika infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi.

UNCTAD tadqiqotlariga ko'ra, eksport samaradorligini belgilovchi asosiy omillar qatoriga transport infratuzilmasi, institutsional sifat, makroiqtisodiy barqarorlik va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv darajasi kiradi [7]. Tahlillar eksport hajmi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ichki ishlab chiqarish omillaridan tashqari logistika tizimi va biznes muhiti ham yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

1-jadval

Eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy manbalarda uchrash chastotasi


Omillar guruhi	Xorijiy tadqiqotlarda uchrashi (%)	Mahalliy tadqiqotlarda uchrashi (%)
Investitsion omillar	89	82

Logistika omillari	85	71
Institutsional omillar	83	76
Innovatsion omillar	79	58
Iqtisodiy omillar	92	88
Tashqi iqtisodiy omillar	74	69

Manba: Mualliflik ishlanmasi.

Jadval ma'lumotlari eksport faoliyatini tadqiq qilgan olimlarning aksariyati iqtisodiy, investitsion va logistika omillariga ustuvor ahamiyat berishini ko'rsatadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda innovatsion omillarning eksport rivojlanishidagi roli sezilarli darajada ortib bormoqda.

1-grafik



Manba: Ilmiy manbalar va ekspert baholash natijalari asosida shakllantirilgan.

Grafik natijalari iqtisodiy va investitsion omillar eksport faoliyatining rivojlanishida eng katta ulushga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bu natijalar Dunningning OLI paradigmasi hamda Rodrikning sanoat siyosati konsepsiyasi bilan hamohangdir [2; 3]. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali eksport salohiyatini oshiradi.

Investitsion omillarning ta'siri xalqaro tajribada yaqqol namoyon bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Dunningning eklektik nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar oqimi yuqori bo'lgan hududlarda eksport hajmi ham yuqori sur'atlarda o'sadi [3]. O'zbekiston misolida ham Navoiy, Toshkent viloyati va Toshkent shahri eksportining nisbatan yuqori shakllanishida investitsion faollik muhim rol o'ynaydi.

Logistika omillarining ta'siri so'nggi yillarda yanada kuchaymoqda. Transport va logistika sifati yuqori bo'lgan mamlakatlarda eksport xarajatlari kamayadi, mahsulotlarning tashqi bozorlarga yetkazib berish tezligi oshadi. Shu sababli logistika tizimi rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdoda nisbiy ustunlikka ega bo'lmoqda [6].

2-jadval

Eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi logistika komponentlarining ahamiyati

Logistika komponenti	Ta'sir darajasi (%)
Transport infratuzilmasi	31
Bojxona samaradorligi	24
Yetkazib berish tezligi	18
Logistika xizmatlari sifati	15
Ombor va terminal tizimi	12

Manba: Mualliflik ishlanmasi.

Jadvaldan ko'rinadiki, transport infratuzilmasi va bojxona tizimining samaradorligi eksport rivojlanishining asosiy logistika determinantlari hisoblanadi. Ushbu komponentlar tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini kamaytiradi va eksportchi korxonalar uchun vaqt omilini optimallashtiradi.

Innovatsion omillarning ta'siri so'nggi ilmiy tadqiqotlarda eksport faoliyati bilan tobora kuchliroq bog'lanmoqda. Raqamli texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari va yangi mahsulotlar yaratish jarayonlari umumiy omillar unumdorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish orqali eksport samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi [4; 14].

Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining ortishi mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bois eksport siyosati faqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga emas, balki mahsulot sifati, texnologik yangilanish va qo'shilgan qiymatni oshirishga ham qaratilishi lozim.

3-jadval

Eksport faoliyati rivojlanishida omillar ta'sirining bosqichma-bosqich samaradorlik darajasi

Ko'rsatkichlar	Ta'sir darajasi (%)
Investitsiyalar hajmining oshishi	20
Innovatsion faoliyatning rivojlanishi	35
Ishlab chiqarish samaradorligining ortishi	55
Mahsulot raqobatbardoshligining kuchayishi	75
Eksport hajmining o'sishi	90
Hududiy iqtisodiy rivojlanish	100

Manba: Mualliflik ishlanmasi.

Jadval ma'lumotlari eksport faoliyatining rivojlanishi bosqichma-bosqich jarayon ekanligini ko'rsatadi. Dastlab investitsiyalar hajmining oshishi ishlab chiqarish korxonalarining texnologik yangilanishiga zamin yaratadi. Innovatsion faoliyatning rivojlanishi esa yangi mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortib, mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha raqobatbardoshligi kuchayadi. Raqobatbardoshlik darajasining ortishi eksport hajmining o'sishiga olib keladi. Eksport hajmi yuqori bo'lgan hududlarda investitsiyalar, bandlik va aholi daromadlarining ortishi kuzatiladi. Shu sababli eksport faoliyatining

rivojlanishi yakuniy natijada hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar Northning institutsional iqtisodiyot nazariyasi, Dunningning investitsion yondashuvi va Rodrikning sanoat siyosati konsepsiyasi bilan mos keladi [1; 2; 3]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eksport faoliyatining rivojlanishi alohida bir omil ta'sirida emas, balki iqtisodiy, investitsion, logistika, innovatsion va institutsional omillarning kompleks ta'siri natijasida shakllanadi.

Mahalliy tadqiqotlar natijalari ham eksport rivojlanishida transport-logistika infratuzilmasi, investitsion muhit va ishlab chiqarish salohiyatining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [11; 12; 13; 14]. Shu bois O'zbekiston mintaqalarida eksportni rivojlantirish siyosati ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda logistika markazlarini rivojlantirish, eksportchi korxonalarni moliyaviy rag'batlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda innovatsion faoliyatni kengaytirishga qaratilishi lozim.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy mohiyati, ularning tasnifi hamda eksport rivojlanishidagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etildi. O'tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida eksport faoliyati mamlakat va hududlar iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligi, uning samaradorligi esa ko'plab ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanishi aniqlandi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish asosida eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar iqtisodiy, investitsion, institutsional, innovatsion, logistika va tashqi iqtisodiy omillar guruhlariga ajratildi. Mazkur tasnif eksport rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli ravishda baholash imkonini beradi hamda hududiy eksport siyosatini shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari investitsion va iqtisodiy omillar eksport faoliyatining rivojlanishida eng katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Investitsiyalar oqimining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali eksport salohiyatining oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, logistika infratuzilmasi va institutsional muhit eksport faoliyatining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynashi aniqlandi. Transport tizimining rivojlanganligi, bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi va eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi eksport xarajatlarini kamaytiradi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: mintaqalarda eksport faoliyatini rivojlantirishda investitsion muhitni yanada yaxshilash; transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistika xarajatlarini qisqartirish; eksportchi korxonalarni institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish; innovatsion faoliyat va raqamli texnologiyalarni eksportga yo'naltirilgan korxonalarda keng joriy etish; eksport faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni muntazam monitoring qilish va baholash tizimini yaratish.

Umuman olganda, eksport faoliyatining rivojlanishi iqtisodiy, investitsion, innovatsion, logistika va institutsional omillarning uyg'unlashgan holdagi ta'siri natijasida shakllanadi. Mazkur omillarni kompleks ravishda takomillashtirish O'zbekiston hududlarining eksport salohiyatini oshirish, tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
2. Rodrik, D. (2004). *Industrial Policy for the Twenty-First Century*. Harvard University Working Paper.
3. Dunning, J.H. (1993). *Multinational Enterprises and the Global Economy*. Addison-Wesley Publishing.
4. Helpman, E. (2011). *Understanding Global Trade*. Harvard University Press.
5. Sachs, J.D., & Warner, A.M. (1995). Economic Reform and the Process of Global Integration. *Brookings Papers on Economic Activity*, 1, 1–118.
6. Arvis, J.F., Mustra, M.A., Panzer, J., Ojala, L., & Naula, T. (2018). *Connecting to Compete: Trade Logistics in the Global Economy*. World Bank.
7. United Nations Conference on Trade and Development. (2024). *Trade and Development Report 2024*. Geneva.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). *Global Value Chains and Trade Policy Review*. Paris.
9. International Trade Centre. (2024). *Export Potential Map Methodology and Applications*. Geneva.
10. World Bank. (2024). *World Development Report 2024: Trade and Development*. Washington, DC.
11. Abdurahmonov, Q.X. (2021). *Raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy rivojlanish*. Toshkent: Iqtisodiyot.
12. Vahobov, A.V., Xajibakiyev, Sh.X., & Nabiyev, E.A. (2020). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
13. Berkinov, B.B. (2022). *Mintaqaviy iqtisodiyot*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
14. Mustafakulov, Sh.A. (2021). *Innovatsion iqtisodiyot va investitsion rivojlanish*. Toshkent.
15. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. (2018). *International Economics: Theory and Policy* (11th ed.). Pearson Education.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

